

15-mavzu: [m] tovushi. Mm harfi

Dars maqsadi:

- [m] tovushining talaffuzi va Mm harfining bosma shakli bilan tanishadilar ;
- [m] undosh tovush ekanligini bilib onladilar.
- soʻzlardan [m] tovushining oʻrnini aniqlashni oʻrganadilar;
- soʻzni boʻgʻinga boʻlib, undagi tovushlar sonini aniqlaydilar;

Tayanch soʻzlar: [m] tovushi

Didaktik materiallar: koʻk va qizil rangli kichik kvadratlar, rasmlı kartochkalar

Darsning borishi:

I.Kirish qismi (5 daqiqa)

Faollashtirish mashqi:

Kalendar : Oʻquvchılardan bugungi kun sanasi soʻraladi.

Izquvar mashqi: Oʻqıtuvchi doskaga non, lola, innana rasmini qoʻyadi yoniga esa lola, non, innana soʻzlari yozilgan kartochkalar qoyadi. Oʻquvchılar esa rasmlarnı oʻzi ifodalagan soʻzlar bilan birlashtirish soʻraladi.

- *Bugun siz bilan "Izquvar" mashqini oʻtkazamiz. Doskadagi rasmlarga qarang, ularni ifodalovchi soʻzlarnı topib birlashtiring.*

Asosiy qism (40 daqiqa)

1. Amaliy topshiriq bajarish: (5 daqiqa)

Oʻqıtuvchi doskaga mushuk, sigir rasmini qoʻyadi. Shu hayvonlar qanday qilib tovush chiqarishlarini va ularni orasida qanday oʻxshashlik borligini aniqlashni soʻraydi.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

- *Rasmda nimalar tasvirlangan?*
- *Ular qanday ovoz chiqaradilar?*
- *Bu ovozlar orasida qanday oʻxshashlik bor deb topdingiz?*

Javoblar xulosalanib, yangi mavzudagi tovush tushuntiriladi

2. Mavzuni tushuntirish: (10 daqiqa)

Oʻqıtuvchi [m] tovushini qanday hosil boʻlishini tushuntiradi. Undosh tovush talaffuzda toʻsiqqa uchrab, qisqa aytilishi unli bilan birga boʻgʻin hosil qilishi haqida tushuncha beradi.

Darslikda berilgan QR kod orqali tovush eshittiriladi.

Oʻqıtuvchi uchun eslatma:

M tovushini talaffuzida lablar kuchsiz birlashadi, tish qirralari orasidagi masofa va til holati "M" tovushidan keyin keladigan unli tovushlarga bogʻliq boʻladi,

yumshoq tanglay pastga tushgan bo'lib buning natijasida, havo burundan o'tib ketadi, tovush boylamlari birikadi va tebranadi.


Darslikdan Mm harfining bosma ko'rinishi bilan tanishtiriladi. Darslikda

berilgan she'r o'qib beriladi va muhokama qilinadi.

Ikkita do'st keldik biz,
Qo'lni qo'lga berdik biz.
Qilmasdan kuchimiz sarf,
Yozildi M degan harf.

- *She'r nima haqida?*
- *Unda qaysi so'zlarda [m] tovushi ishtirok etadi?*
- *Siz yana qanday [m] tovushi bilan qatnashgan so'zlarni bilasiz?*
- *Partadoshingiz bilan M harfining ko'rinishini hosil qilib bering.*

O'qituvchi doskada o'quvchilarga bo'g'inlarni qo'shib so'z hosil qilib o'qish tartibini darslikdagi topshiriq orqali tushuntiradi.



Darslik bilan ishlash: (15 daqiqa)

Darslikda berilgan bo'g'in va so'zlar o'quvchilarga navbat bilan o'qitiladi.

Ko'rsatkich yo'nalishlari bo'ylab so'zlar o'qiladi va gap hosil qilinadi.



Rasmdan "m" tovushi ishtirok etganlarning nomi aytiladi. (muzqaymoq, mashina, mushuk, Akmal...) Topilgan so'zlar ishtirokida gaplar tuziladi.

O'quvchilar tuzgan gaplari nechta so'zdan iborat ekanligini aytadilar. Doskaga bir nechta gap chizmasi chiziladi.

Daftar bilan ishlash: (9 daqiqa)

Mm harfini tegishli rangga bo'yang. Nima uchun bu rangni tanlaganingizni izohlang.

Mushuk so'zining chizmasida [m] tovushining o'rnini aniqlang va tegishli katakni bo'yang.

Berilgan namunadan bosma Mm harfining bosh va kichik ko'rinishini avval nuqtalar ustidan so'ng mustaqil yozing.

Bo'g'inlarni nuqtalar ustidan so'ng mustaqil yozing.

Rasmda berilgan harflarni namunada ko'rsatilgan tartibda bo'yang.

Darsga yakun yasash:

- Qanday tovush bilan tanishdingiz?
- Mashg'ulotda nimalarni eslab qoldingiz?
- Bugungi darsda sizga nima yangilik bo'ldi?
- Qaysi topshiriqni bajarishga qiynaladingiz?

16-mavzu: [m] tovushi. Mm harfi yuzasidan amaliy topshiriqlar

Dars maqsadi:

- [m] tovushining talaffuzi va Mm harfining bosma shakli yuzasidan amaliy topshiriqlar bajaradilar;
- so'zlardan [m] tovushining o'rnini aniqlashni o'rganadilar;
- so'zni bo'g'inga bo'lib, undagi tovushlar sonini aniqlaydilar;

Tayanch so'zlar: So'zning ikkinchi bo'g'inini topish, chapga va o'ngga o'qiganda bir xil o'qiladigan so'zlar, [m] tovushi ishtirokidagi so'zlardan tovushlar sonini aniqlash chizmasi.

Didaktik materiallar: ko'k va qizil rangli kichik kvadratlar, rasmlı kartochkalar, kesma harflar, "Mitti quyon" ertagi.

Darsning borishi:

I.Kirish qismi (5 daqiqa)

Faollashtirish mashqi:

Kalendar : O'quvchılardan bugungi kun sanasi so'raladi.

Men haqimda mashqi: O'qituvchi men so'zi bilan boshlanadigan ikkita gap tuzishni so'raydi.

Asosiy qism (40 daqiqa)

1.Amaliy topshiriq bajarish: (5 daqiqa)

O'qituvchi kesma harflar yordamida o harfi bilan boshlanadigan 4 ta harfdan iborat so'z hosil qilishni so'raydi.

Kesma harflaringiz yoramida o'rgangan harflarimiz bilan so'zlar tuzing. Tuzgan so'zlaringizni partadoshingizga o'qib bering.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

- *Qanday so'zlar tuza oldingiz?*
- *Partadoshingiz qanday so'zlarni tuza oldi?*
- *Partadoshingiz tuzgan so'zlar orasidan qaysi birlari siz tuzgan so'zlar orasida yo'q?*

2.Mavzuni mustahkamlash: (5 daqiqa)

Harflar tasmasidagi avvalgi darslarda o'tilgan harflar esga olinadi. Unli va undosh tovushlar so'raladi.